JIZZAX VILOYATI
XALQ DEPUTATLARI BAXMAL TUMANI KENGASHINING
QARORI

2024 - yil 19 - yanvar VI-67-1-3-44-K/24 Baxmal tumani hokimligi

Baxmal tumanidagi “Qutlug‘obod” mahallasini bo‘lish hisobiga yangi mahalla tashkil etish, nom berish hamda ularning chegaralarini o‘zgartirish va belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomini tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qaroriga muvofiq, Baxmal tuman Kambag‘alikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2023-yil 15-dekabrdagi 848-sonli “Qutlug‘obod mahalla fuqarolar yig‘ini hududini bo‘lish va yangi mahalla tuzish” bo‘yicha bergan xati ko‘rib chiqilib va muhokama qilib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomini tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qaroriga muvofiq, Baxmal tuman Kambag‘alikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2023-yil 15-dekabrdagi 848-sonli “Qutlug‘obod mahalla fuqarolar yig‘ini hududini bo‘lish va yangi mahalla tuzish” bo‘yicha bergan xati ma’lumot uchun qabul qilinsin va qanoatlantirilsin.

2. Qutlug‘obod mahalla fuqarolar yig‘ini hududining bo‘linadigan va yangi tuziladigan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari nomi 1-ilovaga muvofiq;

- bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining yer maydoni 2-ilovaga muvofiq;

- bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organining aholi soni 3-ilovaga muvofiq;

- bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organining chegaralari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimi o‘rinbosariga, tuman Statistika bo‘limi (A.Eshonqulov)ga, tuman Adliya bo‘limi (N.Qodirov)ga, tuman kadastri davlat korxonasi (S.Abduvoxidov)ga va tuman qurilish bo‘limi (S.Siddiqov)ga hamda boshqa tegishli mutasaddilarga:

- davlat organlari bilan birgalikda, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron ba’zani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarini amalga oshirsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (A.Jalolov)ga:

- mazkur qaror bilan yangi tuzilgan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi hududida yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

- yangi tashkil qilinayotgan maxalla fuqarolar yig‘inining yumoloq muxri va shtamplarini tayyorlashga ruxsat berish vazifasi topshirilsin.

5. Tuman hokimi o‘rinbosariga va qurilish bo‘limi (S.Siddiqov)ga:

- tumanda yangi tuzilgan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organiga yangi nom yozilgan ko‘rsatgich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida o‘rnatish topshirilsin.

6. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi mudiri (I.Kenjayev)ga:

- yangi mahalla fuqarolar yig‘ini tashkil qilinayotganligi munosabati bilan rais, xotin-qizlar faoli bo‘yicha o‘rinbosari lavozimiga qo‘shimcha shtat birliklari kiritsin.

7. Kambag‘alikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i (Z.Ko‘liyev)ga va tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (A.Egamberdiyev)larga:

- yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inida O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi Qonunining talablari asosida mahalla hududida, ko‘chalarda vakillar yig‘ilishlari o‘tkazilib, saylov yig‘ilishiga vakillar normasi asosida vakillar saylash, mahalla fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini o‘tkazish uchun kamida 3 nafardan munosib kadrlar zahirasini shakllantirib, tuman hokimiga taklif kiritish vazifasi yuklatilsin.

8. Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshrish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Sh.Kuliyevaga:

- Tumandagi toponomik ob’yektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi tuman komissiyasi yangi mahallaga nom berish bo‘yicha hujjatlarni viloyat komissiyasi tasdig‘iga yuborish vazifasi topshirilsin.

9. “Baxmal xayoti” gazetasi tahririyati (T.Berdiyev)ga, mazkur qaror gazetada rasmiy e’lon qilsin hamda tuman hokimligi Axborot xizmatiga hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingandan so‘ng kuchga kiradi.

11. Ushbu qarorning bajarilishi nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **B.Amanov**

Xalq deputatlari Baxmal tumani
tuman Kengashining
2024-yil 19-yanvardagi
VI-67-1-3-44-K/24-son qaroriga
1-ilova

Qutlug‘obod mahalla fuqarolar yig‘inining bo‘linadigan va yangi tuziladigan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari nomi va joylashishi to‘g‘risida

№	Bo‘linayotgan fuqarolar yig‘ini nomi	Bo‘lingan fuqarolar yig‘ini nomi	Yangi tashkil etilgan fuqarolar yig‘ini nomi
1.	Qutlug‘obod mahalla fuqarolar yig‘ini	Qutlug‘obod mahalla fuqarolar yig‘ini	_____

Xalq deputatlari Baxmal tumani
tuman Kengashining
2024-yil 19-yanvardagi
VI-67-1-3-44-K/24-son qaroriga
2-ilova

Qutlug‘obod mahalla fuqarolar yig‘inining bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining yer maydoni

№	Qutlug‘obod mahalla fuqarolar yig‘inining umumiy yer maydoni (ga)	Qutlug‘obod mahalla fuqarolar yig‘inining qolgan yer maydoni (ga)	Yangi tashkil etilayotgan Yangi xayot mahalla fuqarolar yig‘inining yer maydoni (ga)
1.	2800 ga	1600 ga	1200 ga

Xalq deputatlari Baxmal tumani
tuman Kengashining
2024-yil 19-yanvardagi
VI-67-1-3-44-K/24-son qaroriga
3-ilova

Qutlug‘obod mahalla fuqarolar yig‘inining bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organining aholi soni

№	Qutlug‘obod mahalla fuqarolar yig‘inining umumiy aholi soni (nafar)	Qutlug‘obod mahalla fuqarolar yig‘inining aholi soni (nafar)	Yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inining aholi soni (nafar)
1.	5997	3289	2708

Xalq deputatlari Baxmal tumani
tuman Kengashining
2024-yil 19-yanvardagi
VI-67-1-3-44-K/24-son qaroriga
4-ilova

Qutlug‘obod mahalla fuqarolar yig‘inining bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining chegaralari

№	Qutlug‘obod mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari	Qutlug‘obod mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari	Yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari
1.	Baxmal tumani Do‘stlik MFY, Nurobod MFY, O‘smat SHFY.	Baxmal tumani Do‘stlik MFY, Nurobod MFY, O‘smat SHFY, Yangi tashkil etiladigan MFY	Qutlug‘obod MFY, Nurobod MFY, O‘smat SHFY, Do‘stlik MFY,